Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi.....	910
Ergashev Uyg'un Jabborovich	



KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA SMART TEKNOLOGIYALARINI MA'LUMOTLARINI SOLIQ ORGANLARINING MA'LUMOTAR BAZASIDA SHAKILLANISHI

Ergashev Uyg'un Jabborovich

Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID:0000-0002-3857-7644

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublika davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada avtomatlashtirish orqali soliqqa oid nazorat yo'llari tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada mavzuga oid adabiyotlar sharhi va ayrim huquqiy jihatlari bayon etilgan. Bundan tashqari, soliq nazoratlarni kelib chiqish sabablari, ularga ta'sir etuvchi omillar hamda AKT orqali oldini olish imkoniyatlari yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida xulosalar shakllantirilib, tegishli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, integratsiya, avtomatlashtirish, soliq to'lovchilar, davlat soliq xizmati.

Abstract: The article discusses ways to prevent tax offenses by automating the activities of the state tax service. It also provides an overview of the literature related to this topic and some legal aspects. In addition, the factors that influence the occurrence of tax offenses and the possibility of prevention them with ICT are highlighted. As a result of the study, conclusions were formed and appropriate scientific proposals and practical recommendations were developed.

Key words: Tax offenses, information and communication technologies (ICT), databases, integration, automation, taxpayer, state tax service.

Аннотация: В данной статье исследуются способы налогового контроля путем дальнейшей автоматизации деятельности органов государственной налоговой службы республики. Также в статье представлен обзор литературы по теме и некоторым правовым аспектам. Кроме того, выделены причины налогового контроля, факторы, влияющие на него, а также возможности профилактики с помощью ИКТ. В результате проведенных исследований были сформированы выводы, разработаны соответствующие научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: налоговый контроль, информационно-коммуникационные технологии, база данных, интеграция, автоматизация, налогоплательщики, государственная налоговая служба.

KIRISH

Mamlakatda soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash va bozorda halol raqobat muhitini shakllantirishda samarali soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq nazoratining samaradorligi esa soliq to'lovchilar va soliq ob'ektlarini to'liq qamrab olinganligi, soliq majburiyatlari hisobini to'g'ri va aniq yuritilishi hamda soliq nazoratini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy faoliyat turlari va shakllari kundan-kunga kengayib borayotgan zamonaviy dunyoda soliq bazasini to'liq qamrab olishni faqatgina axborot-texnologiyalari yordamida, biznes jarayonlarni avtomatlashtirgan holda amalga oshirish mumkin. Soliqqa oid munosabatlarni raqamlashtirish, idoralararo o'zaro elektron axborot almashishni kengaytirish va zamonaviy tahlil mexanizmlarini yo'lga qo'yilishi soliq ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olishni ta'minlaydi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1257-son qaroriga¹ muvofiq Davlat soliq

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги "Республика солиқ органлари тизимини янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-1257-сон қарори



qo'mitasining Yagona integrasiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi tashkil etildi. Yagona integrasiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining eski tahrirdagi 84-moddasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-son qaroriga² muvofiq 50 dan ortiq vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilinib, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada avtomatlashtirish va soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar joriy qilish imkoniyatini taqdim etdi.

Ma'lumotlar bazalarini o'zaro integratsiya qilish natijasida davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik sub'ektlari, byudjet va byudjetdan tashqari maxsus jamg'armalarga to'lovlar, ko'chmas-mulk ob'ektlari va ular bo'yicha oldi-sotdi shartnomalari va boshqa shu kabi 120 turdagi boshqa vazirlik va idoralarga taalluqli ma'lumotlarni elektron tarzda qabul qilish yo'lga qo'yildi. Qo'shimchasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6098-son Farmoni³ bilan real vaqt rejimida idoralararo elektron aloqa orqali soliq organlariga taqdim etiladigan qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlangan. Mazkur Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, «O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi» AJ, Kadastr agentligi, «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ, Moliya vazirligi G'aznachiligi, «O'ztransgaz» AJ va «Hududiy gaz tarmoqlari» tomonidan ham soliq organlariga qo'shimcha ma'lumotlar taqdim qilinishi belgilandi.

Bugungi kunda Davlat soliq qo'mitasining Yagona integrasiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi orqali 45 ta elektron davlat xizmatlaridan, 40 dan ortiq soliq ma'muriyatchiligiga oid dasturiy mahsulotlar foydalanilmoqda. Soliq to'lovchilar uchun joriy etilgan elektron xizmatlar doirasida soliq va moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, soliqlarni to'lash, soliq organlaridagi shaxsiy kartochka ma'lumoti bilan tanishish, ortiqcha to'lovni qaytarib olish yoki boshqa soliq turiga o'tkazish, hisobvaraqa-faktura yuborish kabi majburiyatlar elektron tarzda bajarilishi mumkin. Biroq, davlat soliq xizmati organlarining ma'lumotlar bazasi bir qator vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilinganligi, soliqqa oid munosabatlar elektron ko'rinishga o'tkazilganligiga qaramay, iqtisodiyotimizda soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari etarlicha ko'zga tashlanmoqda.

Xususan, jamiyatda "Obnal ishi" deb nom olgan – davlat soliq xizmati organlari tomonidan pul mablag'larini naqdlashtirish bilan shug'ullanuvchi 396 ta «bir kunlik firmalar» aniqlanishi va ularning xizmatidan foydalangan 10 mingga yaqin tashkilotlarning qo'shilgan qiymat solig'i summasini noqonuniy hisobga olish deb topilishi shular jumlasidandir. Bu kabi holatlarni o'z vaqtida aniqlash yoki ularni yuzaga kelishini oldini olish faqatgina rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda zamonaviy axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilishining zarurligi mazkur mavzuning dolzarbligini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olish va ularning ko'lamini kamaytirish bo'yicha mualliflarda turli fikr va mulohazalar mavjud.

Soliq riski – davlat, hududiy munisipiallarning o'z faoliyatidagi rejalashtirilmagan moliyaviy yo'qotishdir. Soliq risklarining yuzaga kelishi va jilovlanmasligi har qanday mamlakatning iqtisodiy holati uchun katta yo'qotishga sabab bo'ladi. Shu sababdan, vaziyatni o'z vaqtida va to'g'ri baholash, uni bartaraf etish choralarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda soliq to'lovchilar soliqlarni minimallashtirish uchun soliq ob'ektlarini yashiradilar va "xufiyona" iqtisodiyot ishtirokchisiga aylanadilar.

Soliq risklarining yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar: soliq qonunchiligining nobarqarorligi, yangi turdagi soliq va majburiy to'lovlarni joriy etilishi, ma'lumhududda qo'llanilayotgan narx siyosati va soliq yukidir. Soliq risklarini yuzaga kelishini kamaytirish va oldini olish uchun: birinchidan, soliq qonunchiligini barqarorlashtirish va ijrosini ta'minlash mexanizmini tartibga solish; ikkinchidan, barcha turdagi soliqqa tortishga oid unsurlarni to'liq ro'yxatga olinishini tashkillashtirish; uchinchidan, soliq yukini asosiy qatlam uchun soliqdan qochish oqibatini keltirib chiqarish normasidan pastda ushlar lozim bo'lishi ta'kidlangan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 2020 yilda.³ Ushbu qo'llanmada bugungi kunda iqtisodiy faoliyat turlari va shakllari keskin o'zgarib borayotganligidan kelib chiqib, soliq idoralarning oldida turgan dolzarb masalalar to'g'risida fikr yuritilgan va soliq idoralari uchun samarali ma'muriyatchilik olib borish bo'yicha integrasiyalashtirilgan platforma modeli taklif etilgan. Unga ko'ra, soliq organlarining ma'lumotlar bazasi qanday tashqi manbalar bilan o'zaro integratsiya qilishini lozimligi, integratsiya jarayonidagi mavjud muammolar va ularning echimlari bo'yicha so'z yuritilgan.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 30 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати идоралари ахборот-коммуникация тизими фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-1843-сон қарори

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги "Республика солиқ органлари тизimini янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-1257-сон қарори



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy va statistik tahlil hamda tasviriy statistika usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, soliq solish ob'ektiga ega har qanday shaxsda soliq majburiyati yuzaga keladi. Ushbu shaxs eng avvalo soliq to'lovchi sifatida hisobda turishi, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi va ularni o'z vaqtida to'lashi shart. Mazkur majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi soliqqa oid huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Tadqiqot jarayonida respublikamizda so'nggi besh yilda o'tkazilgan soliq nazorati jarayonida qayd etilgan eng ko'p kuzatilgan huquqbuzarliklar soni tahlil qilindi va quyidagi rasm shakllantirildi (1- rasm).


Ko'rib turganingizdek, so'nggi 5 yillikda soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish holati eng ko'p qayd etilmoqda. Ushbu huquqbuzarlik turi 2016 yilda 34.6 ming marotaba, 2017 yilda 45.7 ming marotaba qayd etilib, 2018 yilda keskin kamaygan holda 14.8 ming marotaba qayd etilgan. Biroq, 2019 yilda yana 3 barobarga oshib, 48.8 ming marotaba sodir etilgan. 2020 yilda esa ushbu huquqbuzarlik turini qayd etish 2 barobarga qisqarib, 22.2 mingtani tashkil etgan. Keyingi o'rinda eng ko'p qayd etilgan huquqbuzarlik turi bu to'lov intizomining buzilishidir.

Ushbu huquqbuzarlik turi 2016 yilda 18.4 ming marotaba, 2017 yilda 14.4 ming marotaba va 2018 yilgacha 10.3 ming marotaba kuzatilgan. 2019 yilda keskin oshib, 34.3 mingtaga etgan va 2020 yilda yana pasayish kuzatilib, 13.6 ming marotaba qayd etilgan.

Shuningdek, 2016-2020 yillar davomida o'rtacha yiliga 12.1 mingta holatda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmay faoliyat yuritish holati kuzatilgan. Ushbu holatlar bir tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq to'lovchiga nisbatan ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi va uning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ikkinchi tomonidan esa, soliq tizimi uchun byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoniga va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, tadbirkorlik sub'ekti sifatida ro'yxatdan o'tmay faoliyat yuritish, hisobot ko'rsatkichlarini haqiqatdan farq qilish, daromadlarni yashirish kabi huquqbuzarliklar nafaqat soliq tizimi balki butun iqtisodiyot uchun ham salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi turgan gap. Ya'ni, bozordagi sog'lom raqobat muhitiga putur etadi, makroiqtisodiy indikatorlar noto'g'ri baholanishiga sabab bo'ladi. Aksariyat rivojlangan davlatlarda, xususan O'zbekiston Respublikasida ham tadbirkorlikni tashkil etish jarayoni elektron ko'rinishda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Ma'lumotlar bazasi strukturasi (1-rasm)





Hozirgi kunda o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni istagan har qanday shaxs internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida o'z biznesini ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Shuningdek, soliqlarni to'lash jarayonlarini osonlashtirish maqsadida, shaxsiy kabinet va onlayn to'lov tizimlari orqali soliqlarni onlayn to'lash imkoniyatlari ham joriy etilgan. Biroq, yaratilgan qulayliklarga qaramay, huquqbuzarlik holatlari ko'lamining kengligi – soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish holatini oldini olish uchun dunyoning rivojlangan davlatlari xususan, Janubiy Koreya, Daniya va Germaniya kabi davlatlarning soliq organlari ma'lumotlar bazasi soliq to'lovchilarning buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlari bilan integrasiya qilingan. Bunda, soliq to'lovchining hisob yuritish bo'yicha axborot tizimi belgilangan muddat va davrda soliq organlariga tegishli ma'lumotlarni avtomatik tarzda yuboradi.

Shuningdek, soliq organi va banklar o'rtasida soliq to'lovchining soliq munosabatlariga oid tranzaksiyalari to'g'risida ham axborot almashish olib boriladi. Natijada, soliq to'lovchi to'lashi lozim bo'lgan summalar avtomat tarzda hisoblab chiqilib, soliq to'lovchi tayyor holatda hisob-kitoblarni tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Ushbu jarayonning avtomatlashishi soliq to'lovchilarni ortiqcha ovoragarchiliklardan ozod etib, soliq hisobini yuritishni osonlashtiradi. Xususan:

1-jadval. Real vaqt rejimida idoralararo elektron aloqa orqali soliq organlariga taqdim etiladigan qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati.

T/r	Ma'lumotlar nomi	Ma'lumotni taqdim qiluvchi idoralar
1	QQSning qaytarilishi bo'yicha haqiqiy xarajatlar to'g'risida mablag' oluvchilar kesimida ma'lumot	Moliya vazirligi
2	Berilgan davlat nafaqalari to'g'risida oluvchilar kesimida ma'lumot	
3	Birja savdolari orqali amalga oshirilgan bitimlar to'g'risida (savdo predmeti, narx va hisob-kitob shartlari) savdo ishtirokchilari kesimida ma'lumot	«O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi» AJ
4	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari tomonidan olib qo'yilgan (olingan) mol-mulk va mablag'lar to'g'risida ma'lumot	Surishtiruv organlari, tergovgacha tekshirish, dastlabki tergov, sud or-ganlari
5	Ko'chmas mulk va er uchastkalari to'g'risida toifalar bo'yicha ma'lumot	Kadastr agentligi
6	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va «pul yuvish» bilan bog'liq ma'lumotlar	Bosh prokuratura
7	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida haqiqatda foydalanilgan elektr energiyasi to'g'risida ma'lumot	«Hududiy elektr tar-moqlari» AJ
8	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida haqiqatda foydalanilgan tabiiy gaz hajmi to'g'risida ma'lumot	«O'ztransgaz» AJ, «Hududiy gaz tarmoqlari»
9	Yuridik va jismoniy shaxslar kesimida haqiqatda foydalanilgan suv hajmi to'g'risida ma'lumot	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi
10	Yo'lovchi va yuk tashish haqida ma'lumot	Transport vazirligi
11	Yuridik va jismoniy shaxslarning avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) va ular tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar to'g'risida ma'lumot	Ichki ishlar vazirligi
12	Yuridik shaxslarning mansabdor shaxslariga qo'llanilgan jarimalar to'g'risida ma'lumot	
13	Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning joylashtirish vositalaridava davolash muassasalarida vaqtincha ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumot	Ichki ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi
14	Ro'yxatdan o'tgan fuqarolik holati dalolatnomalari va ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot	Adliya vazirligi
15	Davlat xaridlari to'g'risida ma'lumot	Moliya vazirligi G'aznachi-ligi

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda ham qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktyabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-2646-son qaroriga muvofiq, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatdan o'tkazish soddalashtirildi va onlayn tartibda amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qaroriga muvofiq, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari belgilab berildi va



elektron ro'yxatdan o'tkazish joriy etildi. Shuningdek, soliq mobil ilovasi orqali "Soliq hamkor" elektron xizmatidan foydalangan holda huquqbuzarlik to'g'risida soliq organiga xabar berish imkoniyati mavjud. Bundantashqari, onlayn nazorat kassa mashinalari orqali shakllantirilgan cheklar vositasida yutuqli o'yin ishtirokchisiga aylanish va qimmatbaho sovg'alarga ega bo'lish mumkin. Biroq, soliq ma'muriyatchiligimizda ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyati yo'q emas.

Ma'lumki, iqtisodiyotda norasmiy sektor ko'lamining kengayib borishi albatta davlat fiskal manfaatlariga zarar etkazadi va shu orqali uning ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatini zaiflashtiradi. Yashirin iqtisodiyot adolatli jamiyat va sog'lom raqobat muhitini buzadi. Norasmiy bandlik, ijtimoiy badallarni to'lamaslik fuqarolarning keksalik chog'idagi ijtimoiy ta'minotiga putur etkazadi. Keng tarqalgan norasmiy iqtisodiyot jamiyatda jinoyatchilikni ham kuchaytiradi. Shu sababli O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda barcha vositalar, shu jumladan fiskal instrumentlardan keng foydalanish yo'lidan borilmoqda.



2-rasm. Soliq tizimini raqamlashtirish orqali xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish usullari⁴

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning norasmiy sektorini qisqartirish borasida ulkan ishlar qilindi. Shulardan eng asosiysi, moliya tizimida, jumladan byudjet-soliq siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirilganligidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF- 5468-sonli Farmoni qabul qilinishi bilan 2019-2020 yillarda mamlakat soliq tizimida juda katta o'zgarishlar amalga oshirildiki, ularning natijasi o'rta muddatli istiqbolda norasmiy iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga xizmat qiladi. Soliqqa oid islohotlardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:⁵

- turli xil samarasiz maxsus soliq rejimlarini bekor qilish hisobiga soliqqa tortish tizimi nisbatan bixillashtirildi va shu orqali umumbelgilangan (yirik biznes) va soddalashtirilgan (kichik biznes) soliq rejimlari bo'yicha soliq yukidagi keskin farqlanish qisqartirildi;
- engil soliq rejimini (aylanmadan soliqni) qo'llashda ishlovchilar soni emas, yillik tushum (oborot) miqdori mezon sifatida kiritildi;
- ko'plab soliqlar, jumladan ijtimoiy infratuzilma solig'i, maqsadli jamg'armalarga oborotdan ajratmalar bekor qilindi, shuningdek, soliqlar (yagona soliq, yagona ijtimoiy to'lov) bazasini aniqlashning eng kam me'yorlari olib tashlandi;
- jismoniy shaxslar daromad solig'ining ko'p bosqichli progressiv stavkalari o'rniga bir bosqichli proporsional stavkasi joriy etildi;
- ish haqiga soliqlar (daromad solig'i, ijtimoiy soliq), QQS hamda mol-mulk solig'i stavkalarini keskin

⁴ Davlat statistika kumitasi va Davlat soliq kumitasi ma'lumotlari asosida tayёрлаиған

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги "Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини тақомиллаштириш концепцияси тўғрисида"ги ПФ- 5468-сонли Фармони



pasaytirish, shuningdek korxonalar mulk solig'i ob'ekti tarkibida faqat ko'chmas mulk ob'ektlarini qoldirish orqali xo'jalik sub'ektlari soliq yuki keskin kamaytirildi.

Tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yukining umumiy kamaytirilishi, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq soliqlarning qisqartirilishi O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni jilovlash hamda norasmiy bandlik va "konvert usuli"da ish haqi to'lash kabi illatlarini ma'lum darajada cheklashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar va izlanishlardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirish tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlikni oldini olish va kamaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan axborot almashishni yo'lga qo'yish. Ya'ni, soliq organi va bank o'rtasida soliq to'lovchi hisobot davrida bank oborotiga ega yoki ega emasligi bo'yicha axborot almashishni yo'lga qo'yish lozim (amalda Bank siriga amal qilgan holda soliq to'lovchining oboroti summasi emas, faqatgina oborotga egami yoki yo'qligi belgisi taqdim etiladi). Ushbu ma'lumotdan kelib chiqib, tegishli soliq davrida bank aylanmasini amalga oshirmagan soliq to'lovchilarni aylanmaga taalluqli soliqlar bo'yicha hisobot topshirish majburiyatidan ozod etish.

2. Soliq hisobotini topshirish jarayoniga hisobot bo'yicha hisoblangan soliq summasini avtomat tarzda soliq to'lovchining bank hisobraqamidan undirish bo'yicha oferta joylashtirish. Agar soliq to'lovchi ushbu ofertani qabul qiladigan bo'lsa, uning hisob raqamidan soliqlarni undirish.

3. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan resurs soliqlari bo'yicha hisobot topshirish jarayonini avtomatlashtirish. Ya'ni, soliq organi va resurs solig'i ob'ektlari hisobini yurituvchi tashkilotlar jumladan, Kadastr agentligi, Suvsoz korxonasi kabi tashkilotlardan soliq to'lovchilarning ob'ektlari va ularning miqdori to'g'risida ma'lumotlarni olib, soliq hisoboti bilan integratsiya qilish.

4. Onlayn nazorat kassa mashinalari orqali shakllantirilgan cheklar bo'yicha o'tkazilayotgan yutuqli o'yinlarning o'rniga, QQS summasi hisobidan CASHBACK tizimini yo'lga qo'yish. Bunga sabab, bugungi kunda yutuqli o'yinlar orqali sanoqli xaridorlar taqdirlanmoqda. CASHBACK tizimi esa barchaga xaridi miqdoridan ma'lum summani chegirish imkonini beradi va barchani birdek rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Artemenko D.A., Aguzarova L.A., Aguzarova F.S., Porollo E.V. (2017) "Causes of Tax Risks and Ways to Reduce Them". Pages 454-458.
2. OECD (2020), "Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration". Pages 10-24.
3. Кодекс (2019) Ўзбекистон Республикасининг янги тахрирдаги Солиқ кодекси. / Code (2023) Tax Code of the Republic of Uzbekistan in the new edition.
4. Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги "Яширин иқтисодийтни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида" ПФ-6098-сон. / Decree (2020) of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 30, 2020 No PD-6098 "On organizational measures to reduce the shadow economy and increase the efficiency of tax authorities." www.lex.uz
5. Қарор (2010) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги "Республика солиқ органлари тизимини янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-1257-сон. / Resolution (2010) No. PR-1257 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 8, 2010 "On measures to further modernize the system of tax authorities of the Republic". www.lex.uz
6. Қарор (2012) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 30 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати идоралари ахборот-коммуникация тизими фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ1843-сон. / Resolution (2012) No. PR-1843 of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 30, 2012 "On measures to further increase the efficiency of the information and communication system of the state tax service of the Republic of Uzbekistan."www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>